

IMON MOHIYATIDAGI IXTILOFLAR TAHLILI

Muhammadali ZOHIDOV

*Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom
instituti “Aqoid va fiqhiy fanlar”
kafedrası o‘qituvchisi*

Imon masalasi islom aqidasiining ajralmas va dolzarb qismi hisoblanadi. Imon masalasiga ta’rif beruvchi olimlarni shartli ravishda oltita guruhga ajratish mumkin:

Birinchi guruh – Ahli sunnaning ommasi bo‘lib, ular imonga “هو الاقرار باللسان والتصديق بالقلب [Huval iqror billisan va at-tastiq bil qalb] Imon bu til bilan iqror qilish va qalb bilan tasdiq qilishdir, deb ta’rif berishgan. Ya’ni, imon u: qalbi tilidagini tasdiqlashidir. Chunki, qalb bilan tasdiq qilish imonning haqiqatini yuzaga chiqaradi. Imonga tegishli hukmlar esa til bilan iqror qilish orqali joriy bo‘ladi. Imom Abu Hanifadan ham “Albatta, imon u qalb bilan tasdiq qilishdir. Til bilan iqror qilish esa tasdiqqa dalildir, rukun emas”, degan rivoyat bor¹. Ushbu ta’rif ba’zi ash’ariylar va Abu Mansur Moturidiyga ham tegishlidir².

Ya’ni, imon, faqatgina qalbiy tasdiqning nomidir. Til bilan iqror bo‘lish ham, din arkonlariga amal qilish ham imon mohiyatidan bir qism emas. Til bilan iqro qilish, dunyo ahkomlarini joriy qilish uchun imonning shartidir. Ushbu qarashni ilgari suruvchilarni ulamolar, Jumhur mutakallimlar va hanafiylarning mazhabi, ham deganlar³. Ushbu toifa ulamolarga misol tariqasida Abul Barokat Nasafiy, Nuruddin Sobuniy, Sig‘noqiy, Bobartiy, Shamsiddin Samarqandiy. Alloma Xoyali va imom Ala’ Buxoriy kabilarni keltirish mumkin⁴.

“Imon murakkab, basit emas. Ya’ni imon qalbning tasdiqlashi va tilning iqror qilishidan iboratdir”, degan ta’rifni keltiradigan ulamolarni Ba’zi muhaqqiq ash’ariylar va ba’zi hanafiylarning mazhabi, deyiladi.

Ularni Jumhur mutakallimlar va hanafiylarning mazhabidan farqli tarafi, ular til bilan iqror qilishni mutlaqo soqit bo‘lmaydigan bir rukun deb qarashlaridadir. Ularning aytishi bo‘yicha, til bilan iqroq qilish faqatgina til bilan aytishga ojizlik vaqtida qalb

¹ Mahmud bin Zayd Lamishiy Moturidiy. At-tamhid li qovaid at-tavhid. – Istanbul: 2022. – B. 186.

² Imom ibn Furak. Maqolot ash-Shayx Abil Hasan al-Ash’ariy. Tahqiq: Ahmad Abdurrahim. Matba as-Saqofa ad-diniya. – B.153.; Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid. Tahqiq: D.Bakr Tubl o‘g‘li. – Vaqf ad-diyana at-turkiy. – B. 487-489.

³ Hikmatulloh Abiyev, Kudratulloh Sidiqmetov, Jaloliddin Xolmo‘minov, Shokirjon madaminov. Mishkot al-Masobih sharhi. – Toshkent: Hilol-Nashr. 2023. – J. I. 175.

⁴ Mahmud bin Zayd Lamishiy Moturidiy. At-tamhid li qovaid at-tavhid. – Istanbul: 2022. – B. 186-187.

imon bilan xotirjam bo‘lganida soqit bo‘ladi⁵. Bu toifa ulamolarga Abul Muin Nasafiy, imom Saraxsiy, imom Pazdaviy va Abdul Aziz Buxoriylarni keltirish mumkin⁶.

Ikkinchi guruh – Ahli hadisning faqihlari. Ular imonga quydagicha ta’rif berishadi: “ان الايمان هو الاقرار والتصديق والاعمال الصالحة” [Innal iman huval iqror val tasdiq val a’malus solih] Albatta imon - (til bilan)iqror qilish, (qalb bilan)tasdiq qilish va solih amallar qilish. Ushbu ta’rifni Xavorij va Mo’tazila oqimi ham keltirishadi⁷. Biroq, Ahli hadis faqihlari bilan Xavorij va Mo’tazila oqimi orasida yer bilan osmoncha farq bor mazkur farq quyiroqda bayon qilinadi.

Ushbu guruh ulamolari qatoriga Madina ahli imomi - Molik ibn Anas, Shom ahli imomi – Avzo’iy, Hijoz ahli imomi – Imom Shofe’iy va Ahmad ibn Hanbal kabilarni keltirish mumkin⁸. Bu toifa ulamolarni Jumhur muhaddislar, shofe’iy va molikiy faqihlarining mazhabi ham deyiladi⁹.

Uchunchi guruh – Karromiya oqimidir¹⁰. Ularning imonga bergan ta’rifi: “ان الايمان مجرد الاقرار باللسان” [Innal iman mujarradul iqror bil lisan] Albatta imon faqatgina til bilan iqror qilishdir¹¹. Qalbiy tasdiq va solih amallarning e’tibori yo‘qdir.

To‘rtinchi guruh – Murjia toifasi¹². Ularga ko‘ra amal va toatga biror bir ehtiyoj yo‘q – qalb bilan tasdiq qilishning o‘zi kifoya qiladi. Ya’ni kufr bor joyda biror yaxshi amal hech e’tiborli bo‘lmaganidek (bir kishining qalbida kufr bo‘lsa, har qancha yaxshi amal qilsa ham e’tibori bo‘lmaganidek) imon bor ekan har qancha yomon ma’siyat ishlar qilsa ham gunohlar kishining imoniga zarar bermaydi, nuqson yetkazmaydi, imon salomat turaveradi¹³ deyilar. Boshqacha aytganda, murjialar solih amallarga hech qanday o‘rin bermaydilar. Biz esa solih amalni imonning juzi bo‘lmasa ham solih amal imonga foyda yoki zarar keltirishi bordir deymiz.

⁵ Hikmatulloh Abiyev, Kudratulloh Sidiqmetov. Jaloliddin Xolmo‘minov, Shokirjon madaminov. Mishkot al-Masobih sharhi. – Toshkent: Hilol-Nashr. 2023. – J. I. – B. 180.

⁶ Mahmud bin Zayd Lamishiy Moturidiy. At-tamhid li qovaid at-tavhid. – Istanbul: 2022. – B. 186-187.

⁷ Ibn Hazm Zohiriy. Al-fasl fil milal val ahva’ van-nahl. – Qohira: Mataba al-Xonijiy. – J. I. – B. 88.

⁸ Mahmud bin Zayd Lamishiy Moturidiy. At-tamhid li qovaid at-tavhid. – Istanbul: 2022. – B. 186-189.

⁹ Hikmatulloh Abiyev, Kudratulloh Sidiqmetov. Jaloliddin Xolmo‘minov, Shokirjon madaminov. Mishkot al-Masobih sharhi. – Toshkent: Hilol-Nashr. 2023. – J. I. – B. 181.

¹⁰ Karromiylar Muhammad ibn Karromning izdoshlari bo‘lib, Alloh taolonig sifatlariga jism nisbatini va tashbeh qiladigan firqadir. Ushbu firqa ichidan bo‘linib o‘n ikkita yetadi. Va tarixga aylandilar.

¹¹ Mahmud bin Zayd Lamishiy Moturidiy. At-tamhid li qovaid at-tavhid. – Istanbul: 2022. – B. 186-188.

¹² Murjiya lafzi “orqaga tashlash”, “kechiktirish” ma’nolarda keladi. Ular Qur’ondagi dalillarni orqaga tashlab, e’tiborga olmagan uchun murjia deb nomlanadi. G’assoniya firqasining asoschisi G’asson ibn Abon e’tiqod jihatidan murjiya bo‘lib, fiqhda hanafiy bo‘lgani uchun hanafiylarni murjiya degan so‘z tarqalgan. Bu tabiiy jarayon. Zero mo’tazilalarning ham fiqhda hanafiy bo‘lganlari tarixda ma’lum.

¹³ Hikmatulloh Abiyev, Hamidulla Aminov, Mas’udxon Ismoilov, Botirjon Abdullayev. Sahihi Buxoriy sharhi. – Toshkent: Hilol-Nashr. 2022. – J. II. – B. 30.

Beshinchi guruh – Jahmiya oqimi. Ular imonga quydagicha ta’rif berishadi: ان الايمان هو المعرفة لا غير [innal iman huval ma’rifa la g’oyr] Albatta imon ma’rifat¹⁴, boshqa emasdir¹⁵.

Allohning tavhidi, risolatning ma’rifati hosil bo’lsa, u odamni mo’min deydilar. Xoh qalbida tasdiq bo’lsin, xoh tili bilan iqrор qilsin, xoh amal qilsin bularning ahamiyati yo’q. Masalan, bir kishi qalbida o’ylasa, tafakkur qilsa, Alloh haqida ma’rifat hosil bo’lsa, u kishini mo’min deb sanashadi. Tasdiqni esa zaruriy hisoblashmaydi. Bu botil e’tiqoddir. Chunki Makka kofirlarida ham Alloh taolo va Payg’ambariga nisbatan ma’rifat, tanishlik bor edi. Lekin, tasdiq bo’lmagani uchun mo’min bo’lmadilar. Aksincha, mo’minlar payg’ambarlar, farishtalar, kitoblarni aynan tanimay-ma’rifat hosil qilmay turib imon keltirdilar. Demak, tasdiqsiz ma’rifat imon bo’lmas ekan¹⁶.

Oltinchi guruh – Mo’tazila va xavorijlar¹⁷ oqimi. Ular Ahli hadisning faqihlari kabi imonga: ان الايمان هو الاقرار والتصديق والاعمال الصالحة [Innal iman huval iqrор val tasdiq val a’malus soliha] Albatta imon - (til bilan)iqrор qilish, (qalb bilan)tasdiq qilish va solih amallar qilish, deydilar.

Lekin mo’tazila va xavorijlar oqimi tasdiq va iqrorni aytib qabul qilish bilan birga arkonlarga amal qilish ham imonning bir juzi deydilar. Ahli hadisning faqihlari ham “arkonlarga amal qilish”ni imonni ta’rifiga kirgizsalar-da, amal imonning bir juzi demaydi. Balki amalni ziynatlovchi juz deydilar. Misol tariqasida, bir daraxt bor, daraxtning tomri, tanasi, shoxlari va barglari bo’ladi. Daraxtning ildizi va tanasi tarkibiy juzlari bo’ladi. Bularsiz daraxt bo’lmaydi. Lekin barglar va shoxlarni kesib tashlansa, zaif bo’lsa-da daraxt deyiladi. Shu o’rinda daraxtning barg va shoxlari ziynatlovchi deyiladi.

Xuddi shuningdek, muhaddislar amalni imon rukunlari qatorida keltirganda tarkibiy bo’lagi emas, balki ziynatlovchi juzi ekanligini nazarda tutishgan. Amal qilinmasa, imon zaiflashsa ham lekin imon tamoman yo’q bo’lib ketmaydi.

Mo’tazila va xavorijlar manashu uchta qism bilan imon mukammal bo’ladi deyishadi. Ular masalan, kishi namoz o’qimay amalni tark qilsa, imonning bir juzini tark etgani uchun mo’minlikdan chiqadi deyishadi.

Birinchi guruh – Ahli sunnani ommasining imonga: “Imon bu til bilan iqrор qilish va qalb bilan tasdiq qilishdir, deb ta’rif berishi va ikkinchi guruh – Ahli hadisni

¹⁴ Qalbiy tasdiq bilan ma’rifat o’rtasida farq bor. Chunki ma’rifat ixtiyoriy narsa emas. Tasdiq esa ixtiyoriydir. Tasdiqlash uchun xohish kerak. Ixtiyorsiz bilingan ma’lumot ma’rifatdir. Ma’rifatni mantiqiy tasdiq ham deyiladi.

¹⁵ Ibn Hazm Zohiriy. Al-fasl fil milal val ahva’ van-nahl. – Qohira: Mataba al-Xonijiy. -J. II. – B. 88.

¹⁶ Mahmud bin Zayd Lamishiy Moturidiy. At-tamhid li qovaid at-tavhid. – Istanbul: 2022. – B. 192.

¹⁷ Mo’tazila va xavorij o’rtasidagi farq shuki, xavorij gunoh qilish bilan inson imondan chiqadi va kofir bo’ladi deydi. Mo’tazila esa inson gunoh sababli imondan chiqadi, lekin, kufrga kirmaydi deydilar. Bu holni “ikki manzil o’rtasidagi bir manzil”deya izoh berishadi.

faqihlarining imonga: “Albatta imon - til bilan iqror qilish, qalb bilan tasdiq qilish va solih amallar qilish, deb ta’rif berishi orasida lafziy farq bo‘lsa-da, ma’no jihatidan bir xildir. Chunki bu ikki toifa ulamolar gunoh ish qilgan kishini kofir deyishmaydi.

Demak bu ikki toifa ulamolar ahli sunna val jamoa ulamolaridir. Bunday lafziy farq bo‘lishining sababi imom Abu Hanifa r(rohimahulloh)ning zamonasida mo‘tazila va xavorijlar ko‘payib, rivojlanib ketishganidir. Ular o‘zlarining tashviqotlarida imon amalning haqiqiy juzi ekanini, uni tark qilgan inson imondan chiqishini da’vo qilishar edi. Mana shu payitda hanafiylar ularga raddiya berishga e’tibor qaratib, ularning e’tiqodini noto‘g‘ri ekanini tushuntirish uchun imonga tarif berayotganda amalni qo‘shmadilar.

Ahli hadisni faqihlari zamonida esa murjiyalar rivojlanib ketdi. Murjiyalar amalni etibori yo‘q, qalb bilan tasdiq qilinsa bo‘ldi, degan da’voni ilgari sura boshlashdi. Bu esa jamiyatda amalsizlikni rivojlantirar edi. Beamallikni oldini olish uchun ahli hadis faqihlari imonning ta’rifiga amalni qo‘shib qo‘ydilar. Shu sabab ikki taraf bir-biriga qarshi dalil keltirishga hojat yo‘q. Istelohlar har xil bo‘lsada, mohiyat birdir.

Yuqorida zikr qilingan karromiya, murjiya, jahmiya, mo‘tazila va xavorij kabi oqimlar bizning zamonamizda ildizi qurib tamom bo‘lgan. Tarixda ularga raddiya sifatida ko‘plab kitoblar yozilgan. Endilikda ularga oid masalalarni qo‘zg‘ashga hojat yo‘q. Ammo xavorij oqimi da’vo qilganidek, amal imonning bir juzi deb e’tiqod qiluvchi toifalar har bir zamon, balki bizning asrimizda ham uchrab turibdi.

Keling, bunday oqimlarning da’volari va ulargi qarshi bizning dalillar bilan tanishaylik. Buziq toifalar: “Amal imonning bir juzidir. Demak, kimki farzlardan birini inkor qilib emas, dangasalik qilib tark etsa, bas, u kofir bo‘lib moli va qoni halol” deyidilar¹⁸.

1. Ular asosan dalillar va sahobalarni fe’llarining zohiri bilan dalil keltirishadi. Ular Qur’oni karimning qayerida “imon” so‘zi keltirilgan bo‘lsa, uning yonida “solih amal” ham zikr etilgan. Bundan solih amal imonning bir juzi ekanligi bilinadi, deyishadi. Luqmon surasining ushbu 8- oyati kabi:

إِنَّ الَّذِينَ آمَنُوا وَعَمِلُوا الصَّالِحَاتِ لَهُمْ جَنَّاتُ النَّعِيمِ

“Albatta, imon keltirgan va solih amallarni qilgan zotlar uchun “jannatda” ne’mat bog‘lari bordir”.

Bizning dalil: aqidada adashgan toifaga aytamizki, sizlar o‘zlaringga dalil qilib keltirgan oyatlar bizning ham dalilimizdir. Oyatda “imon” bilan “solih amallar” orasiga “و” bog‘lovchisi tushyapdi. Nahv qoidasiga ko‘ra bog‘lovchi “و” harfidan oldingi va keyingi narsalar boshqa-boshqa bo‘lishi lozim. Bundan imon boshqa narsa, amal boshqa

¹⁸ Alizoda Muhammad. Risala fi ibtol mazhabil vahhabiya. – Maktaba ad-diroya. – B. 26.

ekani bilinadi. Agar amal imonning juzi bo'lganida, amal imonga atf qilinmagan bo'lar edi.

Iltizomiy dalil: Jannatga kirishlik(oyatda kelganidek) amal va tasdiqqa birgalikda tegishli bo'lishi, tasdiqni(faqat o'zi) jannatga kirishlik uchun samara beruvchi shar'iy mo'tabar imon bo'lishini inkor qilmaydi. Albatta, jannatga kirish amal bilan birga bo'lgan imonning ham samarasi bo'lmoqlikni taqazo qiladi. Aytish mumkinki, masalan, Zaydni jannatga kirishi faqat tasdiq sababli, Umar va Bakrni jannatga kirishi amal bilan birga bo'lgan tasdiqning sababidan bo'lishi mumkin. Bitta narsa zoti va sifati e'tiboridan ikki va undan ortiq ishning samarasi bo'lishi mumkiku. Hurmoning misolida aytish mumkinki, aql va fikrli inson hurmo mevasini umumiy olganda xurmo daraxtiga, hos jihatdan hurmoning rangini oyga, shirinligini esa quyoshga nisbat beradi¹⁹. Demak, bitta narsa zoti e'tiboridan bittaga, sifati jihatidan bir nechta narsaga nisbat berilmoqda.

Shuningdek, aytamizki, qanday bo'lsa ham jannatga kirib olishning o'zi imon bo'lmish tasdiqning samarasidir. Oxiratdagi jazolardan qutilgan holda kirish amalning samarasidir. Demak, azoblardan xalos bo'lgan holda jannatga kirish amal bilan birga bo'lgan imonning samarasidir. Alloh taolo bandalariga juda mehribon bo'lganligi uchun O'zini Kitobining bir necha o'rinlarida banda ne'matlarni jamlagan, azoblardan xoli bo'lgan xolda jannatga kirishga qiziqtirdi²⁰. Shuning uchun amal va imonni birga keltirdi. Aslo amal imonning juzi bo'lgani uchun emas.

2. Buziq toifalar quyidagi hadisning oxirida keltirilgan **“u qanday amalda bo'lishidan qa'iy nazar, Alloh taolo uni jannatga kirgizadi”** degan iboradan jannatga kirish uchun tasdiqni o'zi kifoya qilmas ekan, balki amal ham shart ekan degan aqidani ilgari surishadi.

وعن عبادة بن الصامت رضي الله عنه عن النبي صلى الله عليه وسلم قال: " من شهد أن لا إله إلا الله وحده لا شريك له وأن محمدا عبده ورسوله وأن عيسى عبد الله ورسوله وابن أمته وكلمته ألقاها إلى مريم وروح منه والجنة والنار حق أدخله الله الجنة على ما كان من العمل " (متفق عليه)

Uboda ibn Somit roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rosululloh sollallohu alayhi vasallam:”Kim Allohdan o'zga iloh yo'q, Uning sherigi yo'q va albatta, Muhammad uning bandasi va Rosuli, albatta, Iyso Allohning bandasi va Rosuli, Uning bandasining o'g'li va Maryamga tushirgan Uning kalimasi, O'zidan bo'lgan ruh, jannat va do'zax haq deb guvohlik bersa, u qanday amalda bo'lishidan qa'iy nazar, Alloh taolo uni jannatga kirgizadi”, deydilar(*muttafaqun alayh*)²¹.

Ushbu hadis haqida biznig e'tiqodimiz shuki, kim tavid kalimasini aytsa, hadisda keltirilgan beshta amalda to'g'ri etiqod qilsa, kancha va qanday amal qilishidan

¹⁹ Chunki mevalarning rangi oy, shirinligi quyosh tasirida rivojlanadi.

²⁰ Alizoda Muhammad. Risala fi ibtol mazhabil vahhabiya. – Maktaba ad-diroya. – B. 23-24.

²¹ Alizoda Muhammad. Risala fi ibtol mazhabil vahhabiya. –Maktaba ad-diroya. – B.28.

qat'iy nazar jannatga kiradi. Matnda kelgan **“u qanday amalda bo‘lishidan qa’iy nazar, Alloh taolo uni jannatga kirgizadi”** jumlasidagi **العمل**(al-amal)ning alif va lomi usul olimlari tahqiqiga ko‘ra ahdi zehnidir. Demak, amal qilish deganda yuqorida o‘tgan beshta ishga e’tiqodiy amal qilish tushiniladi.

Aslida juda ko‘plab dalillar keltirish mumkin. Lekin bu maqolada imkoniyatimiz cheklangan. Keltirgan dalillarimiz ham kifoya qiladi.

Xulosa shuki, amal imonning juzi deb etiqod qilishda, e’tiqod qiluvchi qattiq gunohkor bo‘ladi. Juda katta musulmon jamoasini kofirga chiqaradi. Buning natijasida musulmon ummati yanada parchalanadi. Parchalovchi kuchlarga beminnat yordamchi bo‘ladi. Ularning “parchalab so‘ng boshqar” g‘oyasi bevosita ishtirokchisiga aylanadi. Musulmonlar birlashmasligi, rivojlanmasligi, doimo azobda kun kechirishi va umuman ovozi chiqmasligi bunyotkorlaridan biriga aylanadi. Alloh taolo to‘g‘ri yo‘ldan adashtirmasin.